

Madaniyat sohasidagi to'garaklar faoliyati qoniqarlimi?

Kecha Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti tomonidan Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamkorligida "Madaniyat sohasidagi to'garaklarga yoshlarni jalb etishning dolzorb masalalari" mavzuda davra suhbati tashkil qilindi.

Davra suhbati

Unda senatorlar, Yoshlar parlamenti a'zolari, Madaniyat vazirligi tuzilmalarini mas'ullari, mutasaddi vazirlik va idoralar hamda omraviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbir madaniyat sohasida faoliyat yuritayotgan to'garaklar holatini tahlil qilish, mazkur yo'nalishdagi muammo va kamchiliklarni aniqlash, ularga yoshlarni keng jalb qilish, bu borada mutlaqo yangicha yondashuv yaratish uchun fikr almashish maqsadida tashkil etildi.

Davra suhbati davomida bundan bir necha oy oldin Yoshlar parlamenti a'zolari hududlarda madaniyat sohasidagi to'garaklar faoliyatini o'rnab chiqqani va shu jarayonda aniqlangan

holatlar haqida qisqacha axborot berib o'tdi. Ayni chog'da, senatorlar, soha mutaxassisleri va eksperltarning shu masalaga doir ma'ruzalarini tinglandi.

Ta'kidlanganidek, Madaniyat vazirligi faizimida 837 ta madaniyat markazi faoliyat olib boradi. Ularda 4 mingga yaqin to'garaklar va 270 ta kurs tashkil etilgan bo'lib, qariyb 44 ming yoshni qamrab oлgan. "Maktabda madaniyat markazi" loyihasi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida (madaniyat markazlarining ijobiy xodimlari bilan birligida) 1377 ta to'garak faoliyati yо'lgan.

Tadbirda Bolalar musiqa va san'at maktablarini faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratildi. Ta'kidlanganidek,

bugungi kunda respublika 325 ta bolalar musiqa va san'at maktabi mavjud. Ularda ta'lim 14 ta yo'nalishda yо'lgan bo'lib, 90 ming bola qamrab oлingan. Musiqa maktablarida 13 mingdan ziyod pedagoglar faoliyat olib boryapti.

Qayd etilganidek, madaniyat sohasidagi to'garaklar faoliyatida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan dolzorb jihatlar hamon saqlanib qolmoqda. Masalan, respublikadagi 444 ta madaniyat markazi binosi, ya'n 53 foizi ta'mitalab, 165 tadsida esa yangi bino qurish zarurati mavjud.

Madaniyat markazlari binolarida yetari sharoi yo'qligi va moddiy-teknika bazasi eskiriganligi oqibatida ularga bolalar va yoshlarni jalb etish ko'sratkichi pastligicha qolmoqda. Markazlarda ochilgan to'garak va kurslarga 6 — 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning bor-yо'gi 0,7 foizi qamrab oлingani ham shundan dalolat berib turibdi. Musiqa

maktablarida esa bu boradagi qamrov 1,2 foizini tashkil etadi.

Aytib o'tilganidek, "Madaniyat faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'grisida"gi Qonunda "Nutq madaniyat" kurslarini ochish madaniyat markazlarining eng asosiy vazifasi sifatida belgilab yo'ylgan. Ammo Navoiy, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarda bu kabi kurslar faoliyati yo'lgan yo'ylagan.

Yana bir masala. Madaniyat markazlari 2 ming 977 to'garak rahbaridan 593 nafari, ya'n 20 foizigina olyi ma'lumotli, 59 foizi esa o'rta maxsus ma'lumotga ega xodimlar hisoblanadi. Musiqa maktablarida 13 ming o'qituvchidan 5,6 mingi, ya'n 42,5 foizi olyi ma'lumotli, qolganlari o'rta maxsus ma'lumotga ega.

Davra suhbati duduqlarda yoshlar o'rtaida ularning to'garaklar borasidagi xohish-istiklalarni aniqlash va tahlil etishga doir ijtimoiy so'rnomalar tizimli tarzda o'tkazilganani ham tanqid qilindi. Qolaversa, 13 ta musiqa maktabida

musiqa asboblari, maktablarda doira, g'ijjik va nay kabi cholq'ular yetishmochiligi mavjud.

Bundan tashqi, muhokamalarda madaniyat markazlarini davlat-xususiy sherlik asosida tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Hukumatning tegishli qarori bilan madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sherlik asosida beriladigan davlat mulki obyektlari ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, unda sherliklikka beriladigan 139 ta madaniyat markazi keltirib o'tilan. Biroq 2022-2023-yillarda markazlarining bor-yо'gi 23 tasi xususiy sherliklikka berilgan xolos.

Senatorlar tomonidan bu borada xususiy sherlikni yo'lgan qo'yish to'garaklar faoliyatini sifatli tashkil etishda qo'l kelishi urg'ulab o'tildi. Davra suhbati yakunida aytigan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

"Xalq so'zi".

XLORELLA O'SIMLIGI QORAQALPOG'ISTONDA YETISHTIRILMOQDA

Ma'lumki keyingi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yab keng bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Senatorlar — hududlarda

Shularga mos holda hududda yetishtirish, ya'n ularni chetdan keltirilgan o'simliklarni

xlorella o'simligi yetishtirilayotgan manzilda bo'lib, laboratoriya ishlari va undagi jarayonlar bilan yaqindan tanishdi.

Qayd etilganidek, suvda o'sadigan ushu o'simlik inson organizmiga uchun ham, hayvonot va baliqlar uchun ham zarur bo'ladigan vitaminlarga boy ozuqa hisoblanadi. Shu jihatdan uni bu yerda yetishtirish bir qator masalalarga ijobiy yechim topishda qo'l kelishi ta'kidlanadi.

"Xalq so'zi".

"COPAC" – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLAYDI

Tashqi siyosat va parlamentlararo aloqalarni kengaytirish yo'nalishida O'zbekiston parlamentining faoliyoti so'ngi yillarda sezilar darajada o'sib, xorijiy davlatlar bilan boradagi o'zaro manfaatlari aloqalari tobora yuksalmoqda.

Jumladan, shu yil yanvar oyida O'zbekiston davlati organlari delegatsiyasining Qatar davlatiga amalga oshirgan tashrifni qonunchilik, sud-huquq va korrupsiyaga qarshi kurashish

yo'nalishlarida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun keng yo'li o'chib berdi.

Ahamiyati jihat, mazkur tashrif doirasida O'zbekiston parlamenti vakillari, xususan,

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha parlamentariylar global tashkiloti

Korrupsiyaga qarshi kurashish, samarador hukumatni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun dunyo parlamentariylaridan tashkil topgan xalqaro nohukumat tashkiloti

2002-yilda tashkil etilgan

6 ta mintaqaviy bo'lim

50 ta davlatdan 1400 nafar a'zo

Sherzod To'xtashev
Qonunchilik palatasining
Korrupsiyaga qarshi kurashish
va sud-huquq masalalari
qo'mitasi a'zosi

Zuhra Shodiyeva
Qonunchilik palatasining
Korrupsiyaga qarshi kurashish
va sud-huquq masalalari
qo'mitasi a'zosi

Dilbar Mamajonova
Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar,
nodavlat tashkilotlari va fugarolarning
o'zini o'zib bosqarish organlari
qo'mitasi a'zosi

Aholi salomatligi muhofazasi:

QANDAY MUAMMOLAR BOR?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fugarolarning sog'ligini saglash masalalari qo'mitasi tomonidan eshituv o'tkazildi. Unda Sog'liqni saglash vazirligining "Aholini sil va OIV bilan zararlanish darajasini kamaytirish hamda psixotrop va giyohvandlik moddalariga qaramlik profilaktikasi va davolanishi samaradorligini oshirish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Qo'mita eshitivi

Ta'kidlab o'tilganidek, Jahan sog'liqni saglash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, odamning imunitet tanqisligi virusi oqibatida qaramlik profilaktikasi va undan davolanish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar ro'yobga chiqarilayotgan ma'lum qilindi. Xususan, olib, chekka va tog'i huddudlara yashovchi aholida nafas a'zolari kasalliklariغا skrining qilish maqsadiga "Opka salomatligi" deb nomlangan 7 ta mobil brigada tashkil qilinib, zamonaqiy sun'iy intellekt tizimi asosida ishlovchi mobil Rentgen uskulunari bilan jihozlangan.

Shuningdek, Prezidentimizning tegishli qarori bilan joyri yilda fiziatriya va pulmonologiya tizimidagi 16 ta muassasani 47 turdagilari zamonaviy tashxislari, davolash va reanimatsiya uskulunari bilan jihozlangan.

Eshituvda qayd etilganidek, mamylakatimizda OIV infeksiyasi taraqishiga qarshi kurashish borasida zamonaviy talablariga javob beradigan respublika, hududiy hamda tumanlararo OITSga qarshi kurashish markazlari tashkil etilgan. Ular OIV infeksiyasi erta aniqlash, tashxis qo'yish uchun tegishli asbob-uskulunlar bilan jihozlangan.

Sohada amalga oshirilayotgan tizimli ishlar natijasida kasalliklarning oldini olishga, vaziyatning barqorolashuviga erishilmoqda.

Xususan, 2022-yilda 2021-yillarda nisbatan sil kasaligiga chalinishi intensiv ko'satkichi

infeksiyalarini taraqishining oldini olish, psixotrop, giyohvandlik moddalariga bo'yicha 397 ta maktab, 156 ta o'rta maxsus ta'lim muassasining o'qituvchilar, 886 ta mahalla faollari orasida psixofaol moddalar iste'mol qilganlik belgilari aniqlash bo'yicha o'quv-seminarlar o'tkazilgan. Respublika tizisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amalii tibbiyot markazida Call-markaz tashkil etilib, giyohvandlikha chalangan shaxslar yoki ular qarindoslarining maslahat olib imkoniyatlari kengaytirilgan.

Muhokama davomida deputatlar amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholash bilan birga, chet davlatda uzoz muddat bo'lib, yashash joylariga qaytbay kelayotgan mehnat migrantlarini OIV infeksiyasi tekshiruvini kuchaytirish, "GDF" xalqaro tashkiloti orqali xarid qilinadigan silga qarshi dorislarini ro'yxatda o'tkazish ishlarni tezlashtirish, nosoz holga kelib golgan diagnostika uskulunlarini shay holatga keltirish bo'yicha kengaytirilgan.

Shuningdek, aholi orasida tushuntirish-targ'ibot ishlarni kuchaytirish, odam ko'p to planadigan joylarda havo orqali yuqadigan infeksiyalarini zararsizlantirish choralariga muntazam amalga oshirish, ushbu kasalliklarga chalangan bemorlarni davolash kurslari bilan qamrab olib bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Kun tarfibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

35,2 dan 34,9 foizga pasaygan. OIV infeksiyasi aniqlash bo'yicha 2022-yildagiga nisbatan tekshiruvdan o'tkazilganlari soni 20 foizga osgan bir vaqtida infeksiya aniqlanganlar 0,4 foizga kamaygan.

Aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlarining giyohvandlikning salbiy oqibatlaridan xabarlarini oshirish maqsadida respublika bo'yicha 397 ta maktab, 156 ta o'rta maxsus ta'lim muassasining o'qituvchilar, 886 ta mahalla faollari orasida psixofaol moddalar iste'mol qilganlik belgilari aniqlash bo'yicha o'quv-seminarlar o'tkazilgan. Respublika tizisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amalii tibbiyot markazida Call-markaz tashkil etilib, giyohvandlikha chalangan shaxslar yoki ular qarindoslarining maslahat olib imkoniyatlari kengaytirilgan.

Muhokama davomida deputatlar amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholash bilan birga, chet davlatda uzoz muddat bo'lib, yashash joylariga qaytbay kelayotgan mehnat migrantlarini OIV infeksiyasi tekshiruvini kuchaytirish, "GDF" xalqaro tashkiloti orqali xarid qilinadigan silga qarshi dorislarini ro'yxatda o'tkazish ishlarni tezlashtirish, nosoz holga kelib golgan diagnostika uskulunlarini shay holatga keltirish bo'yicha kengaytirilgan.

Shuningdek, aholi orasida tushuntirish-targ'ibot ishlarni kuchaytirish, odam ko'p to planadigan joylarda havo orqali yuqadigan infeksiyalarini zararsizlantirish choralariga muntazam amalga oshirish, ushbu kasalliklarga chalangan bemorlarni davolash kurslari bilan qamrab olib bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Kun tarfibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

FRAKSIYALAR HAYOTI

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP



Kecha davlatimiz rahbarining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar" va biznesi qol'lab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiysi fraksiyasi a'zosi Baxitbay Aldamuratov mazkur muhim hujjalda strategiyada belgilangan keng ko'lamlı islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirishga oid muhim vazifalar belgilanini e'tirof etdi. "Xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yoba chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishdek muhim maqsadlar mazkur Farmonda ilgari surilgani amaliyati bo'lib, bu aholi huquq va maafaatlarini ta'minlash barobarida tinch va farovon yashashlarini kafolatlashga xizmat qiladi", dedi deputat.

"Milliy tiklanish" DP

Quyi palatining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan O'zbekistonda psixologik yordam ko'satishning dolzorb masalalari bag'ishlab o'tkazilgan davra suhbati "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi Abdumalik Akramov keyingi vaqtida jamiyatda psixologik yordamga bolgan ehtiyoj o'sib borayotgani, ammo sohada malakali kadrler yetishmayotgani masalasiga to'xalib o'tdi.

"Mazkur sohada bugun bizda bo'shilq bor. Uni tezda to'dirmaydigan bo'lsak, kimlardir, ya'n "psevdopsixolog" shaxslar bu maydonni egallashga urinadi. O'yab qarasak, avvalari ham psixologik yordamga ehtiyoj bo'lgan. Lekin so'ngi yillarda axborot olish imkoniyating keskin oshishi bugun ayrim odatlar ruyhatiga salbiy tushib qolishi kuzatilayapti. Ushbu sohada malakali mutaxassislar yetari bo'lmagan sababli bu kabi muammolarni bartaraf etish qiyinlashmoqda", dedi deputat.

"Adolat" SDP

Shu hafta boshida siyosiy partiyalari fraksiyalarida "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Dilmurod Ismoilov qonun loyihasida voyaga yetmagan shaxslarga g'amxo'rlik qilishdan bo'yin tovash zoravonlik sifatida baholanishini qol'lab-quvvatlab, bu bo'yicha o'z taklifini bildirdi.



SIAM EGIZAKLARINI AJRATGAN O'ZBEK JARROHI



1

Gapping ochigi, 2006-yilda hali unchalik sharoit yo'q edi. Shuning uchun kerakli narsalarni har joydan yig'ib keltirganimiz.

Ammo hozirga kelib vaziyat butunlay o'zgarib ketdi. Ayniqsa, oxirgi yillarda tibbiyot sezilarli darajada ilgariladi. Bugungi kunda dunyoning rivojlanchan davlatlarda qilinayotgan murakkab jarrohlik amaliyotining ko'plari O'zbekistonda ham amalga oshirilyapti. Sohaga katta mablag' yo'naltirilayotgani va eng zamonaviy texnikalar olib kelinayotgan hamda shifokorlarimiz xorjida malaka oshirib kelayotgan, boshqa yurtlarning yetakchi mutaxassislarini yurtimizga chaqirib, o'zaro tajriba almashilayotgani bu borada muhim olib bo'yapti.

Soz yuritilayotgan egizaklarga kelsak, hamkaslarimiz bilan yig'ilihib, masala yuzasidan atroficha maslahatlashdik. Yakunda esa hozir hamma narsa qo'limizda bor, hech kimdan hech niema so'ramaymiz, degan xulosaga keldi. Shu tariqa mazkur jarrohlik amaliyotini o'zimiz bajarishga jazm qildik. Natija ham bu qaror to'g'ri bo'lginini ko'ssatdi. Amaliyat muvaffaqiyatlari otdi.

Tayyorlarligi jarayoni uzoq davom etdi. Bemorlar va amaliyot xonasini tayyorlashga ancha vaqt sarflandi. Bu oson jarayon emas. Chunki narkoz berishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Jarrohlikdan keyingi bosqich ham o'zgacha. Ana shularning barchasiga tayyor bo'lingandan so'nq aniq kunni belgiladik.

Narkoz berilayotganda ikkisiga bordaniga jo'natish texnik jihatdan imkonsiz. Ma'lumki, narkoz berilayotgan har qanday bemor chalqancha yotgan bo'lishi talab etildi. Bu egizaklar esa bir-biriga qorni bilan yopishgan uchun bira chalqancha bo'lganda boshqasi pastga qarab osilib turadi. Buni ham mutaxassislarimiz muvaffaqiyatini uddaladi.

Jarrohlik amaliyoti o'tkazish qaroriga kelingandan keyin tibbiyot xodimlaridan iborat kuchli jamoa shakllantirildi. Tabiiylik, jamoada har kunning o'z vazifasi va o'rni bo'ldi. Ammo, istaymizmiyo'qmi, bunda mas'uliyatning katta qismi sizning zimmangiza tushgan. Bundan qo'rmasdingiz? Chunki rossiyalik hamkasbingiz bilan birgalikda o'tkazigan bireni jarrohlik, garchi muvaffaqiyati yakun topgan bo'lsa-da, egizaklardan biri nobud bo'lgandi-ku...

Siz aytayotgan jarrohlik amaliyotidan

keyin salkam yigirma yil vaqt o'tdi. Bu orada bizning tibbiyotimiz, ayniqsa, bolalar jarrohligi ancha rivojlandi, katta tajriba to'pladidi.

A m a l i y o t g a j a l b e t i l g a n mutaxassislarining barchasi o'z sohasining peshqadamlari. Qolaversa, o'sha paytdagi vazirimiz bor mas'uliyatni o'ziga oldi. Jarrohlik amaliyoti Respublika perinatal markazi qoshidagi Neonatal chirurgiya o'quvdavosh-metodik markazida qilinadigan bo'lghach, shu markaz direktori Nilufar O'rinnoyevara ham mas'uliyatni olishga tayyor ekanligini bildirdi.

Kuchli jamaa shakllantirildi. Yonimda birgalikda ishlagan ikki mutaxassis — professorlar Baxtiyor Ergashev va Nasriddin Ergashev hamda anesteziologlarimizni alohida aytilib o'tmoqchilidagi.

Shunday qilib, jarrohlik amaliyotining barcha bosqichi rejalab olingan bu ishga qo'l urdi.

Y o n i n g i z d a g i i k k i jarrohlik amaliyoti o'zlarining shogirdlarini jaib qilganidan xabarimiz bor. Lekin nimagadir siz shuncha shogirdingiz bo'la turib, biron tasiniyam chagirmaganisz. Nega, ularning orasida bu ishga munosiblari yo'qimi? Agar bunday murakkab jarrohlik har doim ham bo'lavermasligini hisobga olsak, bu shogirdarlingiz uchun katta maktab vazifasini o'tagan bo'ldi-ku...

Biz jarrohlikni Perinalt markazda qilinamiz uchun ham faqat o'sha yerda ishlab turgan mutaxassislarini jaib etildi. Tashqaridan faqat men bilan Nasriddin Ergashev qatnashdi. Negaki, bu niyotdagi murakkab jarrohlik amaliyoti sanalgani, natijasi qandaydir foizda mayvhum bo'lgani uchun oldindan ovoza bo'lib ketishining oldini olishga harakat qilindi. Jarrohlik amaliyotini keyin ham bu haqda hech qayerda ma'lumot e'lon qilinmadni. Hatto, vazirimiz bu yangilikni ijtimoiy tarmoq yoki televiziyededa beraylik deganida ham yo'q, halbolar o'ziga kelsin, deb o'zimiz rozilik bermadik.

Shu kabi sabablar bilan amaliyotning shogirdlarini jaib qilmaganimiz. Lekin bu jarayonlarning barchasi tasvirga olinib, keyinchalik shogirdlar va yosh mutaxassislariga ko'ssatdi.

Xullas, ahil jamoa ishni boshladi. Hamma hayajonda ekanligini tushuna bo'ldi. Chunki O'zbekiston tibbiyotida yangi sahifa ochilish

— Siz aytayotgan jarrohlik amaliyotidan



arafasida turibdi. Deylik, jarrohlik amaliyoti ikki-ikki yarim saat davom etadi. Shu jarayon bilan bog'liq qaysi holatlar yozingizda muhrakkab qoldi? Balki bemorlarga taalluqli murakkab vaziyatlarga to'qnash kelgandirsiz?

— Avvalo, hammasi yaxshi bo'lishini Yaratgandan so'radik. Hamma narsa — asbob-uskuna, dori-darmon bor, muhimi, tajribali jamaa shakllantirildi. Hammasi o'srnida bo'lgani uchun qattiq hayajonlanmadik. Lekin, ozmi-ko'pmi, hayajon bo'lgani yashirmayman. Hatto, oddiy ko'richak jarrohlik amaliyotida ham hayajon bo'ladi-ku, bunda bo'lmasimi...

Agar qaysiki jarroh hayajonlanmayman, deса yolg'on aytgan bo'ladi. Jarrohlik o'z nomi bilan jarrohlik, u katta bo'ladiimi yo'klichik, baribir hayajon bo'lishi tabibi.

Xuddi shunday bizada ham hayajon bo'lgan. Ammo amaliyotga kirishgach hammasini tashqarida qoldirdik. Hayotiy tashvish bormi yoki kimmingrid qon bosimi oshadimi, xillas, ish boshlangach hammasini unutasan.

Buning ustiga yelkamizda katta mas'uliyat qulay yoki bor. Birinchanidan, o'sha go'daklarning ota-onasi oldidagi mas'uliyat, kamiga ular boshqa davlatdan, bu ikki karra mas'uliyat yuklaydi.

Shu o'rinda yana bir narsani aytmasak bo'lma, go'daklarning ota-onasi bizga olib kelgunicha hamma narsani birma-bir hisoblab chiqqan. Boshqa davlatlarga borish masalasini ham o'ylagen bo'lsa kerak. Keyin esa bizda tibbiyot yaxshi rivojlangani, ozgina bo'lsa-da, tajribamiz bordingi hisobga olib. O'zbekistonga kelgan. Bu bizga katta g'urur-ifxitox bag'ishlashi barabarida, yelkamiza yanada zalvarli mas'uliyat yuklashi tabibi edi.

chekinmaydi. Hamma tomonni o'rganib bo'lgach, yo'q, biz O'zbekistonga boramiz, degan qarorga kelishgan.

Siam egizaklarning turi ko'p, umuman ajratib bo'lmaydiganlari bor. Hozir o'zimizda bolalar uyida yashab turgan siam egizaklari ham ana shunday murakkab turidan. Chunki tos chanog'i bitta, tepa badan ikkiti, qo'l to'rtta, oyog esa ikkiti. Ajratsa, bittasining yashab ketishiyam gumon. Shuning uchun ming afsus, bunday holatda jarrohlik amaliyoti qilib bo'lmaydi.

Bizning holatda esa qilsa bolardi...

Jarrohlikdan oldin egizaklarning barcha tana a'zolari alohida-alohida bo'lgani holda jigari umumiy ekanligi ma'lum edi. Amaliyot davomida jigarni ajratishga navbat yetib keldi deylik. Kim jigarni egizaklar uchun taqsimlashga jur at'qildi, xillas, oxirgi nuzungiligi kimi ko'ndi?

— Sal kam qirg' yildan beri bolalar jigarroh bo'lganim uchun ham, bu yuk menga yuzlatildi...

— Samargandda o'tkazilgan xalqaro tibbiyot forumida dunyoning ko'plab davlatlariidan akademiklar, mashhur tibbiyot vakillari ishtirok etadi. Shulardan biri — rosiyalik akademik Sergey Gotye sizning siam egizaklariiga doir muvaffaqiyatingizdan tajjubga tushadi. Balki shu topda ichida havas, ma'lum ma'noda hasad kechqandir... Shundan so'ng nimagadir ilmiy jamaatchilik orasida sizga nisbatan "ikkinci Gotye" deyish urf bo'lib ketdi. Meni hayron goldirayotgani shuki, nima uchun "ikkinci Gotye", nima uchun "birinchi Oqilov" emas?

— Birinchi Oqilov bo'lgani durust. Gotye domlanning do'sti, o'zimiz ham do'strim. U odam bilan forunning bitta seksiyasiga raislik qildik, o'shanda unga 2006-yildagi jarrohlik amaliyotini hamda unga yordamchi bo'lganimni eslatdim. U esa hayajon bilan bunday jarrohlikni unutib bo'lmasligini aytgandi. Aslida, u ham bunday jarrohlikni shunga bir marta qilgandi, xolos.

Mana shunday egizaklarning ajaratib, bir oy bo'ldi, uyiga javob berib yubordik, dedim. Menimcha, u bundan xursand bo'ldi. U hasad qiladigan odammas, O'zbekiston tibbiyoti erishgan yutuqdan bizga qo'shilib xursand bo'ldi, deb o'ylayman.

Qolaversa, bizning bu muvaffaqiyatimizda uning bevosita bo'lmasa-da ishtiroti bor. Negaki, birinchi

jarrohlik amaliyoti chog'ida undan anchamuncha narsani o'rgandik. Shu tajriba mustaqil amaliyot chog'ida qo'l keldi.

— Mabodo, agar sizga yana shunday xorijlik bemorlardan murojaat bo'ssa va sizni o'z yurtiga taklif etsa nima qilardingiz? Yoki ularni yana O'zbekistonga chaqiralmidингиз?

— Birinchi jarrohlik amaliyotiga tuyaygorlik jarayoni uzoq davom etgandi. O'shanda Rossiyadan mutaxassislarini chaqiradigan bo'ldik. Butun dunyoga mashhur bo'lgan Zita va Gita ismli egizaklarni ajratgan rosiyalik Razumovski degan professorni taklif qildik. U esa hamma tahillarni yuborishimizni aytdi. U bu murakkab amaliyot, shuning uchun bu yoqqa olib kelinglar, dedi. Ammu ustozim Feruz Nazirov bunga ko'nmadidi. Bu to'g'ri qaror bo'lgan ekan...

Bu bilan demochimanki, bugun O'zbekiston tibbiyoti, xususan, jarrohligi rivojlangan davlatlarnidan qolishmaydi. Shu bois xorijdan yana shunday murojaat bo'ssa, albatta, ularni bu yerga taklif qilgan bo'ldik.

— Hozirgi paytda qirg'izistonlik egizaklardan xabar olib turgan bo'sangiz kerak. Ahvoli qanday ekan?


— Ular Qirg'izistonning O'sh viloyati Aravon tumanida yashashadi. Bir necha marta xabarlashdik. Egizaklarning otanasi yana kelib, ko'satsib ketamiz degandagi, nimagadir kelgan yo'q. Ota-onasidan ham ko'ra buvisi ko'proq jon kuydirdi ular uchun. Onaxonning "Nasib qilsa, nabiralarim katta bo'ssa, O'zbekistonga olib kelib, do'stir qilaman", degan gaplari xotiranda muhrulanib qolgan. Niylatriga yetishsin...

Shu o'rinda yana bir muhim gapni aytishim kerak. Bunday xastaliklar yaqin qarindoshlar nikohidan tug'ilgan go'daklarda ko'proq uchraydi. Xuddi shunday qirg'izistonlik egizaklarning otanasi ham opa-singillarning bolalari ekan. Shuning uchun qarindoshlar o'tasidagi nikohdan ehtiyoj bo'lish kerak. Hozirda yurtimizda bu borada keng targ'ibot olib borilaydi, ammo hamon yaqin qarindoshlar o'tasidagi qudadchilik holatlari uchrab turidi. Buning qanchalik jiddiy masala ekanligini xalqimizning o'zi tushunib yetishi kerak.

Zokir XUDOYSHUKUROV ("Xalq so'zi") suhbatlashdi.

Mutolaa

ACHCHIQ O'TMISH HAQIQATLARI



O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbanlari xotirasiga davlat muzeysi tomonidan "Tarihiy xotira beqiyos" kitobi nashr etildi. Ushbu kitobda soqib ittifqa davrida nohaq sudlangan, o'llim jazofiga mahkumi etilgan prokuratora xodimlarining hayot yo'li, ayanchli qismati haqida hikoya qilinadi.

Qatag'onning dahshati soyasi tushmagani bior soha, tarmoq yoki mahalla qolmagan. Sho'ro qatag'onlarining dahshati davrida minglab begunohlar qatorida prokuratora tizimi vakkilari ham ko'plab musibatlarga duxbor bo'lgan. Ori va nomusini har narsadan ustun qo'yib, nohaqliglarga qarshi borgan, qat'iyat ko'rsatgan, chin ma'noda do'yuvrak va vatanparvar mahalliy xodimlarining 150 nafriga jinoyat ishi qo'zg'atilgan, 30 nafrasi esa ottib tashlangan.

Jumatidan, 1920 — 1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi adliya xalq noziri va respublika prokuratori bo'lib ishlagan Abdurahmon Yusufzoda taraqqiyatparvarlarning "Yosh buxoroliklar" yetakchilaridan biriga aylanlangan. Uning tashabbusi bilan Buxoroda 3 ta sud binosi barpo etilgan, sudlov organlarida birinchisi bo'lib apellyatsiya organi — "Tanzim mahkamasi" ("Arz mahkamasi") tashkil etilgan, sudyalarini olim, foizlari, nafsi-nasabli nomzodlaridan saralab tayinlash yilga qo'yilgan, tarixiy-me'moriy obidalardan hibxonasi sifatida foydalanan amaliyotiga barham berilgan va qayta tiklanib, Buxoro madaniyat muzeysi aylantirilgan. Afusuki, u 1936-yilda NKVD xodimlarini

tonomidan hibsga olingen va 1937-yilda otuvg'a hukm qilingan. Qatag'on yillarda nohaq ayblangan yana bir prokurator Mirzo Qo'qonboy Abdullaqizoda arab, fors, rus va turk tillarini mukammal bilgan. U 1916-yilda Jizzax qo'zg'oloni qatnashchilarini surʼatdan sur Jadronida 30 dan ortiq jizzaxliklarni o'llimdan saqlab qolgan. Shuningdek, uning uyida Vadud Mahmud, Cho'lp'on, Munavarraqi Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar tez-tez uchrashib turishgan, el-yurt qayg'usi ularni birlashtrigan.

Prokurator tizimida ishlash g'orjasini qo'yasini ro'yobga chiqarish mamlakatimiz va jamiyatimizning evoz maqsadlaridan biring aylanlangan. Xalqimizning tarixiyotisini tiklash millatimiz va yurimiz saodati yo'lida shahid ketgan ajoddolarining yuritish, xotirasiga ehtirom ko'rsatish bu yo'lida muhim ishlardan biringdi.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshamiz shahid ketgan ajoddolarni hayoti

va faoliyati misolda haqiqatni aylab yetmas, bugungide erkin hayotining qadrini to'liq anglamasligi, turli fitnalarning navbatdagi qurboni bo'lishi mumkin.

Shu bo'si davlatimiz rahbari qatag'on qurbanlari xotirasini yod etish va ularning mustaqilligimiz yo'lidagi harakatlarini, orzu-armonlarini keng targ'ib qilish ishlari umumimilli harakatga aylanishi zarurligini alohida ta'kidlub keladi.

Yangi kitob axriv manbalari, tegishli hujjatlar orqali o'rganish asosida yaratilgan bo'lib, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajoddolarni xotirasini abadiylashirish, ularning faoliyatini va merosini o'rganish, targ'ib qilish, shu orqali O'zbekiston Respublikasi prokuratorasi organlarining haqiqiy tarixini tiklashda muhim o'r'in tutadi. Ayni chog'da xalqimizning o'tmishi haqidagi ma'lumotlarni keng jamaatchilik, ayniqsa, yoshanglar asosli hamda to'laqonli yetkazish, fuqarolarda prokuratora organlarining sharafligi faoliyatiga doir tasavvurlarini yanada boyitish, sohada faoliyat yuritishotgan yosh mutaxassislarda ifxitox tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qilishi muqarrar.

"Xalq so'zi".

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxdan.</